

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**TUROTOV FURKAT KULDOSH O‘G‘LI**

**“TULIY  $Tm^{3+}$ , YEVROPIY  $Eu^{3+}$  VA TERBIY  $Tb^{3+}$  IONLARI BILAN  
FAOLLASHTIRILGAN ITTRIYLI GRANAT VA ITTRIYLI FTORID  
KRISTALLARINING MAGNITOOPTIK VA OPTIK XOSSALARI”**

**01.04.05 – Optika**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on physical-mathematical sciences**

**Turotov Furkat Kuldosh o'g'li**

Tuliy  $Tm^{3+}$ , Yevropiy  $Eu^{3+}$  va Terbiy  $Tb^{3+}$  ionlari bilan faollashtirilgan ittriyli granat va ittriyli ftorid kristallarining magnitooptik va optik xossalari.....5

**Туротов Фуркат Кулдош ўғли**

Магнитооптические и оптические свойства кристаллов иттриевых гранатов и иттриевых фторидов, активированных ионами Тулия  $Tm^{3+}$  Европия  $Eu^{3+}$  и Тербия  $Tb^{3+}$  .....22

**Turotov Furkat Kuldosh o'g'li**

Magneto-optical and optical properties of yttrium garnet and yttrium fluoride crystals activated by Thulium  $Tm^{3+}$  Europium  $Eu^{3+}$  and Terbium  $Tb^{3+}$  ions.....40

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**TUROTOV FURKAT KULDOSH O‘G‘LI**

**“TULIY  $Tm^{3+}$ , YEVROPIY  $Eu^{3+}$  VA TERBIY  $Tb^{3+}$  IONLARI BILAN  
FAOLLASHTIRILGAN ITTRIYLI GRANAT VA ITTRIYLI FTORID  
KRISTALLARINING MAGNITOOPTIK VA OPTIK XOSSALARI”**

**01.04.05 – Optika**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM889 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.iplt.uz](http://www.iplt.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Valiyev Uygun Vaxidovich**

Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshchanov Baxodir Xudayberganovich**

Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

**Raximov Raximbergan Yuldashevich**

Fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

**Etakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi **DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli** Ilmiy kengashning 2025-yil "17" iyun soat 16:00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent, Do'rman yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (+99871) 262-32-54; email: [info@iplt.uz](mailto:info@iplt.uz), Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ 8 raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 100125, Toshkent, Do'rman yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (+99871) 262-31-69;

Dissertatsiya aftoreferati 2025-yil "3" iyun da tarqatildi.

(2025-yil "3" iyun da № 8 raqamli reestr bayonnomasi).



**X.B. Ashurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

**I.D. Yadgarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**U.K. Maxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati:** Fizikaning ikki fundamental sohalari - fizikaviy optika va magnit hodisalar fizikasi chegarasida yuzaga kelgan nodir yer birikmalarining zamonaviy magnitoptik spektroskopiyasi turli nodir yer materiallarining H tashqi magnit maydon ta'sirida namoyon bo'ladigan optik xususiyatlari anizotropiyasi bo'yicha olib borilayotgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar keng spektrini o'z ichiga oladi.

Ittiry alyuminiyli granatlar asosidagi nodir yer birikmalari va fluoridli nodir yer birikmalarining noyob fizik – kimyoviy xususiyatlaridan quyosh energiyasi konsentratsiyalarida, optik tolali yorug'lik tashuvchilar, svetovodlarda, ultrabinafshaviy, ko'rinadigan va o'rta infraqizil diapazonlarda ishlaydigan qator sensorlar uchun optik materiallar ishlab chiqarishda legirlovchi qo'shimchalar qo'shish, qattiq jisimli lazerlar yaratishda qo'llaniladigan materiallar sifatida foydalanish katta qiziqish uyg'otadi.

Bu qiziqish quyidagi hol bilan tushuntiriladi, ya'ni magnitoptik effektlarni birdan bir manbai xuddi shunday  $Tm^{3+}$ ,  $Tb^{3+}$ , va  $Eu^{3+}$  nokramers NY ionlarining to'la aynimagan elektron holatlari magnit momentlari “kvazidublet” holati deb yuritiluvchi holatlarni yuzaga keltiruvchi yaqin joylashgan Shtark singletlari to'lqin funksiyalarining “aralashish” (tashqi magnit maydon) mexanizmi bilan tushuntirilishi mumkin. Shu sababli  $Tm^{3+}$ : (YAG) va  $TbF_3$  lar nurlanish spektrlarining yangi tadqiqotlari, ya'ni differensial magnitoptik metodlardan foydalangan holda keltirilsa (Zeeman effekti, magnit sirkulyar qutblanish lyuminessensiyasi) juda foydali bo'lar edi, chunki ularning qo'llanilishi  $Tm^{3+}$  nokramers ionlarida yaqin joylashgan Shtark sath ostilari (ya'ni “kvazidublet”) simmetriyalari va joylashishlarini aniqlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi 1, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi:** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning: II “Energiya, energiya va resurslarni tejash, transport, mashina va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asboblarni ishlab chiqish” ustuvor yo'nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Bugungi kundagi NY magnit dielektriklarining fundamental tadqiqotlariga qiziqish tobora kuchayib bormoqda, chunki ular qattiq jismlar fizikasi sohasida magnit hodisalarini fizikasining fundamental muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

So‘nggi 10-15 yil ichida nodir yer metallari va ular asosidagi birikmalari magnitoptikasi va optikasiga bag‘ishlangan ishlar soni keskin ortdi.

Ortorombik simmetriyali ( $P_{nma}$  fazoviy guruh)  $TbF_3$  terbiy triflorid kristali past temperaturalarda magnetik, optik va magnitoptik xususiyatlarning keng spektrini namoyon qiladi. Masalan paramagnit terbiy kristalida  $Tb^{3+}$  ionlari magnit momentlarining kuchli ferromagnit tartiblashishlari tasodifan, odatda NY – ionlari kiritilgan rombik simmetriyali kristallarda past temperaturalarda ( $T_N \sim 3,8$  K) kuzatiladigan antiferramagnit tartiblashishlardan farqli o‘laroq, ortorombik kristallarda ( $T_C \sim 3,95$  K) magnit kirituvchanligi va solishtirma issiqlik sig‘imlarining temperaturaviy bog‘lanishlarini tadqiq qilish jarayonida kuzatildi (aniqlandi). Bundan tashqari  $TbF_3$  kristal optik nuqtai nazardan ortorombik strukturaning biror bir kristallografik o‘qi (a, b, c) bilan mos tushmaydigan “kvazi bir o‘qli kristal” sifatida qaraladi, bu esa ushbu anizotrop kristallarida olib boriladigan magnitoptik tadqiqotlarini (Faradey aylanish burchagini o‘lchash va boshqa tadqiqotlar) qiyinlashtiradi va ular ko‘p ishni talab qiladi. Bu borada triflorid kristalining turli kristallografik yo‘nalishlari bo‘ylab qo‘yilgan magnit maydonlarida ionlar elektron holatlarining Zeeman ajralishlarini tadqiq qilish samaraliroqdir.

Shu vaqtgacha olib borilgan tadqiqotlarda  $Tb^{3+}$  ionlari multeplatlarning Shtark sath ostilari simmetriyalari identifikatsiyasi amalga oshirilmaganligi sababli, bu hol qo‘shimcha eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun turtki bo‘ldi.  $Tm^{3+}$ : YAG kristallarining yutilish va lyuminessensiya spektrlari J.B Gruber va boshqalar tomonidan turli temperaturalarda (past temperaturalar ham kiradi) ko‘rinadigan va yaqin infraqizil sohalarda batafsil o‘rganildi. Optik o‘tishlar  $^1D_2$ ,  $^3H_6$ ,  $^3F_4$ ,  $^3F_3$  va  $^3F_2$  multipletlar  $^1D_2$  holatidan o‘tishlar sodir bo‘lgan jarayonlarda nurlanish spektrlarini tadqiq qilishda foydalanildi. Bu olingan kattaliklar granat strukturasida  $Tm^{3+}$  ionining asosiy  $4f^{(n)}$  – konfiguratsiyasiga tegishli aksariyat multipletlar (ya‘ni J, L, S-holatlar) kristal maydon (KM) ajralishlari tasdiqlovchi axborotlarni berish bilan bir qatorda ushbu multipletlardagi Shtark sath ostilari simmetriyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi. Bizningcha granat – alyuminat strukturalarida  $Tm^{3+}$  ionlari uchun ilgari olingan energetik spektrlar ularga mos kvazidublet holatlarini qo‘shish orqali to‘ldirilishi kerak. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan NY birikmalarining optik va magnit xususiyatlarini tadqiq qilishda yuzaga kelgan qarama – qarshiliklar, ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu dissertatsiya ishida optik, magnit va magnitoptik o‘lchash metodlaridan foydalangan holda, granat va ortoalyuminat kristallografik strukturali NY birikmalarida nokramers NY ionlari elektron holatlarining Shtark va Zeeman ajralishi xususiyatlarini batafsil tadqiq qilish vazifasi qo‘yildi.

**Dissertatsiya tadqiqotlarining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi:** Dissertatsiya ishi bevosita hozirgi vaqtda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida olib borilayotgan “Kondensirlangan muhitlarning optik tadqiqotlari” mavzuidagi davlat granti doirasida olib borilmoqda. Natijalarning bir qismi Mirzo

Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida olib borilayotgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining FZ - 202009143 raqamli "Magnit maydoni yordamida nodir yer elementlari bilan faollashtirilgan oksidli va fluoridli kristallarning optik xarakteristikalarini boshqarish" loyihasi doirasida olingan (2022-2026 yillarga mo'ljallangan).

**Tadqiqotning maqsadi:** Quyi simmetriyali kristall qobiqda uch valentli NY ( $Tb^{3+}$ ,  $Tm^{3+}$  va  $Eu^{3+}$ ) ionlari energetik spektrida "kvazidublet" holatlarini aniqlash maqsadida granat va triflorid strukturalarida NY ionlarining optik va magnitoptik xususiyatlarini eksperimental tadqiq qilish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

elektrodipol yaqinlashishda man qilingan  $4f \rightarrow 4f$  optik o'tishlarni identifikatsiya qilish va tadqiq qilinayotgan o'tishlarda kombinatsiyalanuvchi  ${}^5D_4$  va  ${}^7F_6$  Shtark sath osti energiyalarni aniqlash maqsadida spektrning ko'rinadigan sohasida  $TbF_3$  kristalining optik spektrlarini eksperimental tadqiq qilish;

$TbF_3$  kristalida  $T = 90$  K temperaturada  $[001]$  («c» o'qi) va  $[010]$  («b» o'qi) kristal o'qlari bo'ylab tarqaluvchi chiziqli – qutblangan yorug'likda Zeeman effektini eksperimental tadqiq qilish;

$D_2$  simmetriyali kristal qobiqda  ${}^3F_4$ ,  ${}^1G_4$ ,  ${}^1D_2$  va  ${}^3H_6$  multipletlari uchun Shtark sath ostilarini identifikatsiya qilish va spektrning ko'rinadigan sohasida  $Tm^{3+}$ :YAG kristalining ikkilamchi nurlanish spektrlarini eksperimental o'rganish;

$Tm^{3+}$ : YAG kristalida  $Tm^{3+}$  ionlarining magnit sirkulyar qutblanish lyuminessensiyasi spektrlari (MSQL) darajalarining past temperatura lyuminessensiya spektrlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanib,  $D_2$  simmetriyali kristal qobiqda mavjud bo'lgan  $Tm^{3+}$  ionlarining  ${}^3F_4$ ,  ${}^1D_2$  va  ${}^3H_6$  multipletlari energetik spektrlarida kvazidublet holatlar va ularning energiyalari mavjudligini aniqlash;

magnitoptik tadqiqotlar asosida  $Tm^{3+}$ : YAG kristalida  $Tm^{3+}$  ionlarining  ${}^3F_4$ ,  ${}^1D_2$  va  ${}^3H_6$  multipletlari kvazidublet holatlarining Zeeman ajralishlarini hisoblash;

magnit kirituvchanligi va Verde doimiylarining temperaturaga bog'liqliklarini o'rganish asosida  $EuGaG$  kristalning Verde doimiysining magnit kirituvchanlikka bog'lanish xarakterini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning predmeti:**  $TbF_3$  va  $Tm^{3+}$ : YAG kristallarining optik xossalari (yutilishi va lyuminessensiyasi) asosida tashqi magnit maydon qo'yilganda kuzatiladigan magnitoptik xossalari (MDD va MSQL).

**Tadqiqotning obyekti:** terbiyli triflorid monokristallari, tarkibida tuliy ioni bo'lgan ittriy alyuminiyli granatlar va yevropiy – galliy granati.

**Tadqiqotning metodlari:** Eksperimental tadqiqotlarda differensial magnitoptika magnit sirkulyar qutblanish lyuminessensiyasi va Zeeman effekti metodlaridan foydalanildi. Optik xususiyatlarni o'lchash optik yutilish, lyuminessensiya va lyuminessensiyaning uyg'otilish spektrlarini (LUS) tadqiq qilish asosida amalga oshirildi. Magnitlangan namunadan chiqayotgan yorug'lik oqimini modulyatsiyalashgan qutblash metodi; sinxron detektorlash metodi;

eksperimental axborotlarni qayta ishlashning matematik va sonli hisoblash metodlari va boshqalar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ilk marotaba TbF<sub>3</sub> kristal optik spektrlarining tahlili asosida 4f→4f va 4f→5d o'tishlar uyg'otilishi ko'rsatib berildi. Ularning energiyalari spektrning UB sohasida joylashgan bo'lib ular spektrning ko'rinadigan sohasida 4f→4f o'tishlar <sup>5</sup>D<sub>4</sub>→<sup>7</sup>F<sub>6</sub> va <sup>5</sup>D<sub>4</sub>→<sup>7</sup>F<sub>5</sub> emission taqiqlangan elektrodipol yaqinlashishda intensiv polosalarning paydo bo'lishiga olib kelishi tajribada aniqlandi;

birinchi marta 90 K temperaturada sharoitida Tb<sup>3+</sup> ionning <sup>5</sup>D<sub>4</sub> → <sup>7</sup>F<sub>6</sub> multipletlari Shtark sath ostilari orasidagi optik o'tishlar bilan bog'liq TbF<sub>3</sub> kristalida o'lchangan yutilish va fluoressensiya spektrlarini solishtirish asosida optik o'tishlar sxemasi tuzildi va sath ostilari energiyalari hamda NY ioni multipletlaridagi kombinatsiyalanuvchi optik o'tishlarda joylashishlari o'rganildi;

Ilk marotaba Zeeman effekti tadqiqotlari asosida chiziqli qutblangan yorug'lik nurining [001] kristallografik o'qi bo'ylab tashqi magnit maydoni [100] o'qiga parallel bo'lgan holda TbF<sub>3</sub> kristalida yaxshi ajratilgan <sup>7</sup>F<sub>6</sub>→<sup>5</sup>D<sub>4</sub> dublet yutilish polosasining  $D = 10.7 \text{ sm}^{-1}$  bo'lgan dastlabki ajralishining kamayishiga olib kelishi tajribada aniqlandi;

boshqa eksperimental geometriyasida, H tashqi magnit maydoni <sup>7</sup>F<sub>6</sub> multipletining asosiy kvazidublet holatini ajralishiga olib kelmasligi aniqlandi.  $20730 \text{ sm}^{-1}$  energiyada kuzatiladigan yutilish chizig'i Zeeman ajralishlariga duchor bo'ladi va uning kattaligi H tashqi magnit maydon kuchlanganligi ortishi bilan ortadi, bu hol C<sub>s</sub> simmetriyasining kristal qobiqda nokramers NY – ioni magnitlanishining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lishi ko'rsatib berildi;

birinchi marta Tm<sup>3+</sup>: YaG tulliy - itriyli granat – alyuminat monokristalida magnitoptik (MSQL) va optik (lyuminessensiya) effektlari spektral bog'lanishlari tahlili asosida YAG granat – alyuminatda <sup>1</sup>G<sub>4</sub>→<sup>3</sup>H<sub>6</sub>, <sup>1</sup>D<sub>2</sub>→<sup>3</sup>F<sub>4</sub> va <sup>1</sup>D<sub>2</sub>→<sup>3</sup>F<sub>3</sub> lyuminessensiya polosalarida Tm<sup>3+</sup> NY – ionining uyg'otilgan <sup>1</sup>D<sub>2</sub>, <sup>3</sup>F<sub>4</sub>, <sup>3</sup>G<sub>4</sub> va asosiy <sup>3</sup>H<sub>6</sub> multipletlarida "kvaziaynigan" holatlar mavjudligi tajribada aniqlandi. Tm<sup>3+</sup> nokramers ionidagi taqiqlangan 4f → 4f o'tishlar bilan bog'liq lyuminessensiya polosalarida magnitoptik effektlar paydo bo'lishi mexanizmlari ko'rsatib berildi;

ilk marotaba yevropiy – galliyli granat kristalida FEni tadqiq qilish asosida *EuGaG* da Verde doimiysining ushbu granat magnit kirituvchanligiga bog'liqligi tajribada o'rganildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:** NY granatlarining optik va magnitoptik xususiyatlari negizida turli magnitoptik qurilmalar, spektrning ko'rinadigan va UB sohalarida ishlovchi displey, optik izolyatorlar, yorug'lik nurlanishi modulyatori, NY birikmalar tadqiqot natijalardan fotonika va rentgen rentgen ssintillyatorlarida aktiv va passiv elementlar sifatida foydalanish, standart optik damlashdan foydalanib ko'rish diapazonida ishlaydigan generatorlarda faol muhit, NY birikmalarida tadqiqot natijalardan kuchli lazer sistemalarida samarali optik izolyatorlarni yaratish hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** C<sub>s</sub> va D<sub>2</sub> simmetriyali kristall maydonlarda tadqiq qilinayotgan Tb<sup>3+</sup> va Tm<sup>3+</sup> nodir yer ionlari energetik

spektrlaridagi nozik strukturalar to'g'risida to'la axborot olish hisoblanadi. Shuningdek, magnitoptik effektlar kattaliklariga ta'sir ko'rsatuvchi magnitoptik faollikning turli mexanizmlarini aniqlash imkoniyatlari hisoblanadi. Olingan eksperimental natijalar multipletlarning sath ostilaridagi magnitoptik o'tishlarda ishtirok etuvchi Zeeman ajralishlari kattaliklarini hisoblash imkonini beradi.

Olib borilgan qutblanish – optik va magnitoptik tadqiqot natijalari shundan darak beradiki, tarkibida boshqa NY ionlari bo'lgan kristallar ( $Tb^{3+}$ ,  $Tm^{3+}$  va  $Eu^{3+}$ ) turli lidar sistemalar uchun biologiya, meditsina texnologiyalarida amalda keng qo'llaniladigan spektrning ko'rinadigan va o'rta infraqizil diapazonda ishlovchi lazerlar uchun istiqbolli muhitlar ekanligidan dalolat beradi.  $TbF_3$  kristallar oilasi matritsada ko'p sondagi  $R^{3+}$  ionlarini o'z ichiga oladi va fotonika va optikaning faol va passiv elementlari sifatida foydalanish mumkin.  $TbF_3$  kristali  $Tb^{3+}$  ionlari magnit momentining yuqori kattaliklariga ega bo'lganligi sababli magnitoptika va magnetizm tadqiqotlari uchun istiqbolli material hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** Olingan tadqiqot natijalarining nazariy hisob-kitoblar natijalari bilan solishtirish imkoni bilan tushuntiriladi. Magnitoptik tadqiqotlarni amalga oshirishda spektral bog'lanishlarni qayd qilish va qayta ishlashning zamonaviy metodlaridan foydalangan va parallel ravishda boshqa mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari bilan solishtirish orqali hosil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Ushbu dissertatsiya ishi doirasida NY ionlarining optik, magnitoptik va energetik spektrlarini hisoblash usuli va NY ionlarining optik xossalari tashqi magnit maydoni ta'siridan:

«Metall oksidlari bilan legirlangan silikatlardagi termoelektrik xususiyatlar va o'z-o'zini tashkil qilish jarayonlari» mavzusidagi O'zbekiston–Hindistonning Uzb-Ind-2021-78-raqamli qo'shma fundamental tadqiqotlar loyihasi ilmiy-texnikaviy vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 01/11-2954-sonli ma'lumotnomasi).

Ilmiy tadqiqot natijalardan foydalanish silikat shishalarni metall oksidlari bilan legirlash jarayonida hosil bo'luvchi nanokristallardagi struktura o'tishlari optik xossalari, legirlangan silikat shishaning tarkibidagi NY metallari ionlarining elektr o'tkazuvchanligi, optik xossalari va termoEYuK koeffitsientiga ta'sirini o'rganish imkonini bergan.

Optical Materials, jurnalida nashr etilgan tadqiqot natijalarimizdan xorijiy jurnallardagi ilmiy maqolalarda (PHYSICAL REVIEW MATERIALS 7 034401 2023. IF= 7; Journal of the American Chemical Society Vol 146, Issue 49 IF= 14.5; Microwave and Optical Technology Letters Volume 65, Issue 6, June 2023. IF= 3.1) past temperaturalarda tashqi magnit maydonda kristallarda bo'ladigan fizikaviy jarayonlar tushuntirishda foydalanilgan. Ilmiy natijalardan foydalanish Tb/Eu asosidagi lyuminessensiya termometrlardagi muammolarni tushuntirishda va  $TbScO_3$  kristalining tashqi magnit maydondagi fizik xususiyatlarini tushuntirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Dissertatsiya ishining najjalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi:** Dissertatsiya ishining mavzusi bo’yicha olingan natijalar asosida 10 ta ilmiy ish nashr qilingan, shundan O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya kommissiyasining tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shu jumladan 3 tasi xorijiy nufuzli ilmiy jurnallardagi maqolalar bo’lib, 2 tasi mahalliy jurnalda. Shuningdek 5 ta ma’ruza materiallari xalqaro va respublika konferensiyalarida chop etilgan

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi:** Dissertatsiya tarkibi kirish, to’rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, 21 ta rasm va 2 ta jadvaldan iborat. Dissertatsiya matni 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, mavzuning obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mos kelishi ko’rsatib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning amalda qo’llanilishining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Dissertatsiya strukturasi va dissertatsiya mavzusi bo’yicha chop etilgan ishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tm<sup>3+</sup> va Eu<sup>3+</sup> ionli granatlar va TbF<sub>3</sub> ftoridli kristallarning magnit va optik xususiyatlari**» mavzusidagi birinchi bobi obzor xarakterda bo’lib, unda paramagnit granatlar va triflorid kristallaridagi Tb<sup>3+</sup>, Tm<sup>3+</sup> va Eu<sup>3+</sup> nodir yer ionlarining kristallografik tuzilishi, magnitoptik xususiyatlari bo’yicha shu vaqtgacha olib borilgan tadqiqotlar batafsil tahlil qilingan.


Dissertatsiyaning «**Esperimental qurilmalar, o’lchashlar metodikalari va namunalar**» deb nomlangan ikkinchi bobda tadqiq qilingan namunalar, ularning optik, magnit va magnitoptik tadqiqotlarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan eksperimental qurilmalar va o’chash metodikalari qisqacha bayon qilingan.

Tadqiqotlar amalga oshirilgan « Tm<sup>3+</sup> YAG va EuGaG granatlari monokristallari Germaniyadagi Darmshtadt texnika universiteti Fizika institutida “Eritma – qotishma“ dan spontan kristallashish metodi bo’yicha o’stirilgan.

Tadqiq qilingan namuna tarkibida ~ 1% Tm<sup>3+</sup> ionlari mavjud bo’lib, ular [110] va [001] tipidagi kristallografik tekisliklarda orientirlangan va qirqib olingan.

TbF<sub>3</sub> monokristallari Shubnikov nomidagi kristallografiya instituda (Rossiya) yo’naltirilgan kristallashish metodida o’stirildi. Optik, magnitoptik tadqiqotlarni amalga oshirishda quyidagi eksperimental qurilmalardan foydalanildi:


1. MSQ darajalari spektrini o’lchash qurilmasi:
2. Lyuminessensiyani o’lchash qurilmasi:
3. MDD spektrlarni o’lchash qurilmasi
4. Zeeman effektini o’lchash qurilmasi.




**1 - Rasm.**  $T = 25$  K (uzluksiz chiziq) va  $300$  K (uzuq chiziq) temperaturalarda (100) tekisligida yozib olingan. Uygʻonish lyuminessensiya spektrlari (ULS) kuzatilgan. Toʻlqin uzunligi  $\lambda = 542.2$  nm. Ilovada ULS larni  $T = 300$  K temperaturalarda yutilish spektrlari (uzluksiz chiziq) bilan solishtirish natijalari.

$TbF_3$  kristali yutilish spektrlari bilan solishtirish (1-rasm qaragʻan) orqali oʻz tasdigʻini topdi.  $230$  nm toʻlqin uzunligidan quyidagi sohalarda LUS spektrlarining keskin kamayishi va shakl buzilishiga olib keluvchi intensiv optik UB – yutilish sohasi boshlanadi, bu esa  $Tb^{3+}$  ionlaridagi ruxsat etilgan (spin va juftlik boʻyicha)  $4f^{(8)} \rightarrow 4f^{(7)} 5d$  elektrodipol oʻtishlar nurlanishini absorbsiyasi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Energiyalari spektrning UB – sohasida joylashgan uygʻotilgan  $4f \rightarrow 4f$  va  $4f \rightarrow 5d$  oʻtishlar emision jixatdan taqiqlangan (elektrodipol yaqinlashishga)  $4f \rightarrow 4f$  oʻtishlar bilan bogʻliq lyuminessensiyaning paydo boʻlishiga

Dissertatsiyaning « $TbF_3$  kristallaridagi nodir yer ionlarining elektron holatlari Zeeman ajralishlarining oʻziga hos xususiyatlari» deb nomlangan uchinchi bobda Zeeman effekti va  $TbF_3$  kristalidagi optik spektrlarni tadqiq qilish natijalari keltirilgan. Olingan natijalardan koʻranadiki, spektrning  $240 - 340$  nm spektral oraligʻida lyuminessensiyaning uygʻotish spektri (LUS) tor taqiqlangan (elektrodipol yaqinlashishda)  $4f \rightarrow 4f$  oʻtishlar kuzatildi. Bu oʻz navbatida LUS spektrlarini xuddi shu spektral sohada yozib olingan natijasida isbotlandi (1-rasm



**2 - Rasm.** Triflorit terbiya ortorombik kristalning [001] kristallografik oʻq boʻylab past temperaturalarda ( $90$  K) oʻlchangan yutilish va lyuminessensiya optik spektrlari (qora rangda). Optik spektrlar xarakteristikalarida foydalanilgan belgilashlar matnda keltirilgan.



**3 – rasm.** 90 K temperaturada  $TbF_3$  kristalda  $Tb^{3+}$  NY ioning  $7F_6$  va  $5D_4$  multipletlari shtark komponentalari orasidagi optik o'tishlar sxemasi. Yutilish o'tishlari sxemasi chapda, lyuminessensiya o'tishlari sxemasi esa o'ngda keltirilgan.


chiziqlar 6 va undan yuqori raqamlar bilan belgilangan bo'lib ular  $7F_6$  multipletning yuqori energiyali sathlaridan uyg'otilgan  $5D_4$  multiplet sath ostilaridagi optik o'tishlarga mos keladi va 2 – rasmning ilovasida ularning kichik intensivligi tufayli ular alohida keltirilgan.

90 K temperaturada  $Tb^{3+}$  ioni  $5D_4$  va  $7F_6$  multipletlari Shtark sath ostilari orasida sodir bo'luvchi optik o'tishlar bilan bog'liq yutilish va lyuminessensiya spektrlarini o'lchash natijalarini solishtirish 3-rasmda keltirilgan optik o'tishlar sxemasini tuzish, sath ostilari energiyalarini aniqlash va ularning multipletlaridagi optik o'tishlarda kombinatsiyalanuvchi joylashishlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiq qilingan kristalning yutilishi (va lyuminessensiyasi)

spektrlaridagi optik o'tishlar identifikatsiyasining yuqorida keltirilgan qo'shimcha

olib keladi. Bu hol, 483 – 500 nm spektral diapazonda yozib olingan, nurlanishli o'tishlar bilan bog'liq  $TbF_3$  monokristalidagi fotolyuminessensiyaning havorang spektri keltirilgan 2 – rasmdan yaqqol ko'rinib turibdi. Kristal maydonda fluorid kristalidagi  $Tb^{3+}$  nodir yer ioni asosiy  $4f^{8}$  – konfiguratsiyasi multepleti uyg'otilgan  $5D_4$  Shtark sath ostilariga  $7F_6$  asosiy multepletning quyi sath ostilaridan o'tishlarga mos keluvchi optik yutilish chiziqlari 2 – rasmda keltirilgan va 2 ... 5 raqamlari orqali belgilangan. Qolgan yutilish




**4 – rasm.** [001] o'qi bo'ylab yorug'lik tarqalishida ortorombik kristalning [100] kristallografik o'qiqa parallel  $H = 7 kE$  (uzliksiz chiziqlar),  $6 kE$  (nuqta – nuqta chiziqlar) va  $0 kE$  (punktir chiziqlar) tashqi magnit maydonida  $T = 90 K$  temperaturada yozib olingan  $TbF_3$  dagi  $7F_6 \rightarrow 5D_4$  yutilish polosalari dublet chiziqlarida ( $\sim 20675 \text{ cm}^{-1}$ )  $\pi$  - tashkil etuvchisi Zeeman ajralishlarining spektral bog'lanishlari. Ilovada  $T = 90 K$  temperaturada yuqorida qarab chiqilgan  $H^2$  dublet chizig'idagi  $\Delta^2(H)$  ajralish kvadrati ajralish bog'lanishlari.


tasdig'i quyida keltirilgan TbF<sub>3</sub> ortorombik kristalidagi [001] va [010] kristallografik yo'nalishlari bo'ylab yorug'lik tarqalishida o'lchangan ko'ndalang Zeeman effektining eksperimental tadqiqotlari hisoblanadi.

4 – rasmda [001] o'qi bo'ylab yorug'lik tarqalishidagi ortorombik kristalning [100] kristallografik o'qiga paralel  $H = 7,5 \text{ kE}$  tashqi magnit maydonida  $T = 90 \text{ K}$  da yozilgan TbF<sub>3</sub> dagi  ${}^7F_6 \rightarrow {}^5D_4$  yutilish polosasining  $\pi$  - tashkil etuvchisi dublet chizig'i ( $\sim 20675 \text{ sm}^{-1}$ ) Zeeman ajralishlarining spektral bog'lanishlarini o'lchash natijalari keltirilgan. Aynan shu rasmda magnit maydon bo'lmagan holda olingan dublet chiziqlarining xuddi shu spektral bog'lanishlarini solishtirish maqsadida keltirilgan.

Bu keltirilgan rasmdan ko'rinadiki,  $T = 90 \text{ K}$  temperaturada [001]



6– rasm.  $H = 7 \text{ kE}$  magnit maydonidagi  $T = 90 \text{ K}$  temperaturada yutilish chiziqlarining  $\sim 20675 \text{ sm}^{-1}$  energiyali 2-3 (a) va  $20730 \text{ sm}^{-1}$  energiyali 1-chiziqlaridagi (b) Zeeman effektining paydo bo'lishiga olib keluvchi magnitoptik faol o'tishlar sxemasi.




5 – rasm. Yorug'likning [010] o'qi bo'ylab tarqalishida ortorombik kristalning [001] kristallografik o'qiga paralel  $N = 7 \text{ kE}$  (tutash chiziq),  $0 \text{ kE}$  (nuqta-punktir chiziq), tashqi magnit maydonida  $T = 90 \text{ K}$  temperaturada TbF<sub>3</sub> kristalida  ${}^7F_6 \rightarrow {}^5D_4$  yutilish polosasidagi dublet chiziqlar ( $\sim 20730 \text{ sm}^{-1}$ )  $\sigma$  - tashkil etuvchisining Zeeman ajralishlari spektral bog'lanishlari. Ilovada ortorombik kristalning [001] kristallografik o'qiga ("c" o'qi) paralel,  $N = 7,5 \text{ kE}$  tashqi magnit maydonida triftorid terbiy kristlida a-b tekislikdagi ko'zgu tasviri bilan bog'liq nodir er ioni Tb<sup>3+</sup> ning ikki kristallografik ekvivalent holati (C<sub>s</sub> simmetriya) ning sxematik ko'rinishi keltirilgan.

kristallografik yo'nalishi bo'ylab chiziqli-qutblangan yorug'likning tarqalishi sharoitida  $\pi$  - qutblanishning,  $\sim 20675 \text{ sm}^{-1}$  yaqinida spektral sohada kuzatiladigan TbF<sub>3</sub> dagi yaxshi ruxsat etilgan  ${}^7F_6 \rightarrow {}^5D_4$  yutilish polosalari dublet chiziqlarida  $D = 10.7 \text{ sm}^{-1}$  ga teng dastlabki ajralishning kamayishiga olib keladi.


5-rasmda boshqa eksperiment geometriyasida, ya'ni TbF<sub>3</sub> kristalidagi a – b tekislikka perpendikulyar H

tashqi magnit maydoni bu magnit maydonda  ${}^7F_6$  multiplet asosiy kvazidublet holatini ajratmaydi va magnitoptik o'tishlar  ${}^7F_6$  multipletining asosiy kvazidubleti yo quyi A singletdan, yo V yuqori singletdan  $20730 \text{ cm}^{-1}$  energiya yaqinida lokallashgan  ${}^5D_4$  multipletining tashqi maydon bilan aralshgan kvazidublet holatlarini V', V'' (yoki A', A'') ga o'tishda sodir bo'ladi. (6-rasm) Bu holatda ushbu energiyada ko'rinadigan yutilish chizig'i kattaligi tashqi magnit maydon kuchlanganligi H ning ortishi bilan ortadigan Zeeman ajralishlariga duchor bo'ladi. Terbiy triftorid kristalining Zeeman effektining bunday oddiy bo'lmagan o'zini tutishi ushbu ishda  $C_s$  simmetriyaning Kristal qobig'ida nokramers NY ionlarining magnitlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan tushuntiriladi.

**“ $Tm^{3+}$ :YAG va EuGaG granatlari monokristallarining optik va magnitoptik xususiyatlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida 90 K va 300 K temperatura sharoitlarida spektrning ko'rinadigan sohasida  $Tm^{3+}$ :YAG granatning MSQL spektrlarining tadqiqot natijalari keltirilgan. 7-,8-va 9 rasmlarda  $T = 90 \text{ K}$  va  $T = 300 \text{ K}$  temperaturalarda  $H = 10 \text{ kE}$  tashqi magnit maydonida lyuminessensiyaning  ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$  (7-, 8 rasmlar) va  ${}^1G_4 \rightarrow {}^3H_6$  (9 - rasm) chiziqlarida o'lchangan tuliy – itriyli granat – alyuminat monokristallaridagi MSQL darajasi spektrlari keltirilgan.




**7 -rasm.**  $T = 90\text{K}$  (qora) va  $T = 300 \text{ K}$  (yashil) temperaturalarda 453 – 456 nm to'liq uzunliklarida  ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$  nurlanishli o'tishlarda o'lchangan MSQL darajalari spektrlari. Lyuminessensiya spektrlari (nuqtalar)  $T = 90 \text{ K}$  temperaturada o'lchangan. Ilovada: tashqi magnit maydon bo'lmagan va maydon kuchlanganligi  $H=10 \text{ kE}$  bo'lgan hollarda  $Tm^{3+}$ :YaG da  $Tm^{3+}$  NY – ioni  ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$  multipletlari sath ostilari orasidagi optik o'tishlar sxemasi keltirilgan.



**8-rasm.**  $T = 90\text{K}$  (qora) va  $T = 300 \text{ K}$  (yashil) temperaturalarda 459 – 461 nm to'liq uzunliklarida  ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$  nurlanishli o'tishlarda o'lchangan MSQL darajalari spektrlari. Lyuminessensiya spektrlari (nuqtalar)  $T = 90 \text{ K}$  temperaturada o'lchangan. Ilovada: tashqi magnit maydon bo'lmagan va maydon kuchlanganligi  $H=10 \text{ kE}$  bo'lgan hollarda  $Tm^{3+}$ :YaG da  $Tm^{3+}$  NY – ioni  ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$  multipletlari sath ostilari orasidagi optik o'tishlar sxemasi keltirilgan.

4-, 7 - (7 - rasm), 12 - (8 - rasm) va 14- (9 - rasm) MSQL darajalari spektral bog'lanishlari chiziqli lyuminessensiya chiziqlari doirasida (chegaralarida) og'ma – chiziqli bog'lanishlarga approksimatsiya qilinishi mumkin. Ular uchun effekt kattaligi nolga (effekt ishorasini o'zgartirganda mos chiziqning “og'irlik markazi”ga) nisbatan simmetrik (yoki to'la nosimmetrik). 7- va 8- rasmlarda keltirilgan nurlanishli o'tishlar sxemasidan 4- va 12- chiziqlarning  $^1D_2$  multipleti  $V_2(\Gamma_3)$  sath ostidan 4- chiziq uchun  $Y_4(\Gamma_4)$ ,  $Y_3(\Gamma_2)$  yaqin joylashgan sath ostilariga va  $^3F_4$  multipletning 12- chiziq uchun  $Y_8(\Gamma_4)$ ,  $Y_7(\Gamma_1)$  sath ostilariga sodir bo'ladigan majburiy ruxsat etilgan optik o'tishlar bilan bog'liq ekan. Ayni damda, 7- rasmdagi 7- chiziq  $\Gamma_3$  simmetriyali  $^1D_2$  multipletining  $V_2$  Shtark sath ostidan  $^3F_4$  multipletning yaqin joylashgan  $Y_8(\Gamma_4)$  va  $Y_7(\Gamma_1)$  Shtark sath ostilarida sodir bo'luvchi ruxsat etilgan (simmetriya bo'yicha) optik o'tishlar (tufayli sodir bo'ladi) bilan asoslanadi. 7- chiziqdagi (7- rasm) MSQL darajalari spektral bog'lanishlarining o'ziga xos xususiyatlari  $^1D_2$  multipletining yaqin joylashgan  $V_4(\Gamma_4)$  va  $V_3(\Gamma_2)$  Shtark sath ostilaridan  $^3F_4$  multipletning  $Y_5(\Gamma_1)$  sath ostiga o'tishda sodir bo'ladigan ruxsat etilgan (simmetriya bo'yicha) optik o'tishlar yuzaga keladi.  $Tm^{3+}$ : YAG dagi  $Tm^{3+}$  NY ionining  $^1D_2$  va  $^3F_4$  multipletlari sath ostilari orasidagi optik o'tishlar 7 - va 8 - rasmlarda keltirilgan.




**9-rasm.**  $T = 90K$  (qora) va temperaturada 484 – 488 nm to'liq uzunliklarida  $^1G_4 \rightarrow ^3H_6$  nurlanishli o'tishlarda o'lgangan MSQL darajalari spektrlari. Lyuminessensiya spektri (nuqtalar)  $T = 90 K$  temperaturada o'lgangan. Ilovada: tashqi magnit maydon bo'lmagan va maydon kuchlanganligi  $H=10 kE$  bo'lgan hollarda  $Tm^{3+}$ : YaG da  $Tm^{3+}$  NY – ion  $^1G_4 \rightarrow ^3H_6$  multipletlari sath ostilari orasidagi optik o'tishlar sxemasi keltirilgan.

foydalanib, agar boshqa bittasining simmetriyasi ma'lum bo'lsa, magnitoptik o'tishlarda kombinatsiyalanuvchi holatlardan birining simmetriyasini o'rnatish qiyinchilik tug'dirmaydi.

$P(v)$  spektral bog'lanishning 12- nurlanish chizig'i lyuminessensiya (markazida effekt ishorasi almashinadigan) chiziqlari doirasida chegarasida) og'ma chiziqli bog'lanish hisoblanadi. Umumiy nazariya ko'ra  $P$  spektrning (MSQL darajalarining A - hadi) qiyalik kattaligi optik o'tishlarda kombinatsiyalanuvchi boshlang'ich va oxirgi holatlar sath ostilarining Zeeman ajralishlari tufayli yuzaga keladi: bu holda Zeeman ajralishlari tufayli  $^5D_1$  multiplet kvazidublet holati “singlet - kvazidublet” magnitofaol o'tadi. MSQL darajalari A – hadining ifodasida qatnashuvchi NY – ioning elektr va magnit dipol momentlari matrik elementlari tashkil etuvchilari uchun ma'lum tanlash qoidasidan(simmetriya bo'yicha)


MSQL darajasining  $A'$  hadlari paydo bo'lishiga javobgar Zeeman ajralishlari 4 - va 12 - nurlanish chiziqlari (8- rasm) uchun nisbatan katta emas va ravishda  $\Delta E_{zeem.}^{eff.} = 0.16 sm^{-1}$  va  $\Delta E_{zeem.}^{eff.} = 1.01 sm^{-1}$  ga teng, hamda  $H = 9.5 kE$  tashqi maydonda  ${}^3N_6$  multipleti kvazidublet holati uchun 14 - chiziq (9 - rasm) uchun  $\Delta E_{zeem.}^{eff.} = 0.23 sm^{-1}$  ga teng. Bunda  ${}^1D_2$  multipleti kvazidublet holati "effektiv" ajralishi kattaligi "effektiv" ajralishi kattaligi  $\Delta E_{zeem.}^{eff.} = \frac{C'}{D_1} \mu_B H$  bo'lib, 7 - nurlanish chizig'ida nurlanishli "kvazidublet – yakkalangan singlet" o'tishlar uchun  $\Delta E_{zeem.}^{eff.} = 0.6 cm^{-1}$  ga teng. Keltirilgan 4 - va 12 - chiziqlarda MSQL darajalari spektrlarining o'ziga xos xususiyatlari  ${}^1D_2 \rightarrow {}^3F_4$  va  ${}^1G_4 \rightarrow {}^3H_6$  va  ${}^1G_4 \rightarrow {}^3F_3$  lyuminessensiya polosalarida  ${}^1D_2$  multipletning quyi qismida joylashgan aynan bir kvazidublet holatda sodir bo'luvchi nurlanishli o'tishlar bilan bog'liq.

Optik va magnitoptik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki  $Tm^{3+}$  ionidagi  $4f \rightarrow 4f$  taqiqlangan o'tishlar tufayli hosil bo'ladigan lyuminessensiya polosalaridagi magnitoptik effektlar paydo bo'lishi mexanizimiga ko'ra energetik spektrlarda "kvazidublet" strukturaga ega bo'lib, bunda kvantomexanik "aralashish" effekti muhim rol o'ynaydi. Topilgan  $4f \rightarrow 4f$  o'tishlarning simmetriyali identifikatsiyasi natijalari magnitoptik tadqiqotlar kattaliklari bilan tasdiqlanadi.



**10 - Rasm.** Magnit kirituvchanlikning temperaturaga bog'liqligi  $\chi(t)$   $EuGaG$  Uzlukli chiziq – formula bo'yicha hisoblangan (1), 1 – eksperiment natijasi. Uzlukli chiziq  $\chi'(t)$  funksiyaning temperaturaga bog'liqligi formula bo'yicha hisoblangan (2) normallashtirilgan Verde doimiysi  $\frac{V}{V_{80}}$  (II) va normallashtirilgan magnit kirituvchanlikning  $\frac{\chi}{\chi_{80}}$  (I) temperaturaga bog'liqligi; (3) 1,15 va (4) 0,63 to'lqin uzunliklarida ( $\lambda$ , mkm)

10 – rasmda 80 – 600 K temperatura intervalida  $EuGaG$  granat magnit kirituvchanligining temperaturaviy bog'lanishlari keltirilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,  $EuGaG$  granatning magnit kirituvchanligi temperatura ortishi bilan kamayadi, bu kamayish 300 K dan yuqori temperatura amalda chiziqli bo'ladi.



**11– Rasm.** NY ioni  $Eu^{3+}$  ning Verde doimiysi  $V$  ning turli to'lqin uzunliklarida  $\chi$  funksiyaga bog'liqligi.

$$\chi = \chi_{vv}^{(0)} + (\chi_1 + \chi_2) + \chi_{vv}^{(1)} + \chi_{vv}^{(2)} \quad (1)$$

Formula asosida qurilgan *EuGaG* granat magnit kirituvchanligining nazariy bog'lanishlari uzluksiz chiziqlar yordamida mos ravishda ko'rsatib berildi,

$\chi_{vv}^{(0)}$  va  $\chi_{vv}^{(1)}$   ${}^7F_0$ ,  ${}^7F_1$  va  ${}^7F_1$ ,  ${}^7F_2$  multipletlar to'liqin funksiyasi "aralashishi" hisobiga magnit kirituvchanlikdagi hissalar hisoblanadi;  $(\chi_1 + \chi_2)$  -  ${}^7F_1$ ,  ${}^7F_2$ ; multipletlarning termik to'ldirilishi holatlari bilan bog'liq hissa;  $\chi_{vv}^{(2)}$   ${}^7F_3$  multiplet to'liqin funksiyalari bilan  ${}^7F_2$  multiplet to'liqin funksiyalarining aralashishi tufayli hosil bo'ladigan Van – Flek aralashishi hissasi.

Olingan bog'lanishlar tahlilidan ko'rinadiki, barcha temperatura diapazonida eksperimental aniqlanadigan va nazariy hisoblangan  $\chi$  magnit kirituvchanliklar eksperimental xatoliklar darajasiga bir – biriga mos kelgan 10 - rasmda 0.63 va 1.15 to'liqin uzunliklari uchun magnit kirituvchanligi va Verde doimiylarining temperaturaviy bog'lanishlari ko'rsatilgan. Yuqori temperaturalarda Verde doimiysi va magnit kirituvchanligining temperaturaviy bog'lanishlari yaqqol ko'rinadi.

$\text{Eu}^{3+}$  ioning Faradey effekti uchun olingan ifodadan  ${}^7F_0$  asosiy holatdan  $4f^n - {}^15d$  uyg'otilgan konfiguratsiyaga barcha ruxsat etilgan elektrodipol o'tishlar va  ${}^7F_0$ ,  ${}^7F_1$ ,  ${}^7F_2$  multipletlar va  ${}^7F_1$ ,  ${}^7F_2$  holatlar aralashishi to'liqin funksiyalari magnit kirituvchanligini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.

$$\chi' = \chi_{vv}^0 - \frac{1}{3}(\chi_1 + \chi_2) + \chi_{vv}^1 + \chi_{vv}^2 = \chi - \frac{4}{3}(\chi_1 + \chi_2) \quad (2)$$

10 - rasmda ikki formula asosida hisoblangan  $\chi'$  temperaturaviy bog'lanishlari keltirilgan (puktir chiziq) 85 - 300 K temperatura intervalida 400 - 700 nm to'liqin uzunligi spektral diapazonida FE metodida *EuGaG* granatida olib borilgan eksperimental tadqiqotlari, shuningdek 80 – 300 K temperatura diapazonida 0.63 va 1.15 mkm lazer to'liqin uzunliklarida o'lchangan Faradey aylanishlari tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Verde doimiysining temperaturaviy bog'lanishi  $\chi'(t)$  funksiya orqali aniqlanadi

11 – rasmda ko'rinib turibdiki *EuGaG* granatidagi Verde doimiysining  $\chi'$  ning to'liqin uzunlikka bog'liqligi tajriba aniqligi doirasida chiziqli  $V(\chi)$  bog'lanish grafiqi koordinata boshidan o'tadi. Shuningdek *EuGaG* Verde doimiysining ushbu granat magnitlanishiga proporsional emasligi aniqlandi, uning temperaturaga bog'liqligi, ayniqsa yuqori temperaturalarda  $\chi'$  funksiyaga bog'liq ekan.

## XULOSALAR

Fizika matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun amalga oshirilgan « Tuliylar  $\text{Tm}^{3+}$ , Yevropiy  $\text{Eu}^{3+}$  va Terbiylar  $\text{Tb}^{3+}$  ionlari bilan faollashtirilgan ittriylar granat va ittriylar fluorid kristallarining magnitoptik va optik xossalari » mavzuidagi dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Birinchi marta  $\text{TbF}_3$  kristaliga energiyasi ultrabinafsha sohasida joylashgan  $4f \rightarrow 4f$  va  $4f \rightarrow 5d$  o'tishlarning uyg'otilishi natijasida spektrning ko'rinadigan sohasida  ${}^5D_4 \rightarrow {}^7F_6$  va  ${}^5D_4 \rightarrow {}^7F_5$  emission taqiqlangan  $4f \rightarrow 4f$  o'tishlar bilan bog'liq

bo'lgan intensiv lyuminessensiya polosalarining paydo bo'lishiga olib kelishi ko'rsatildi.

2. 90 K temperatura sharoitida  $TbF_3$  kristalidagi  $Tb^{3+}$  ionning Shtark sath osti  $^5D_4 \rightarrow ^7F_6$  multipletlari orasidagi optik o'tishlar bilan bog'liq holda o'lchangan yutilish va fluoressensiya spektrlarini solishtirish asosida optik o'tishlar sxemasi tuzildi va sath ostilari energiyalari hamda ularning NY ioni multipletlaridagi kombinatsiyalanuvchi optik o'tishlarda joylashishlari aniqlandi.

3. Ilk marotaba  $TbF_3$  kristalida [001] kristallografik yo'nalish bo'ylab yorug'lik tarqalganda, [100] o'qiga parallel bo'lgan tashqi magnit maydoni 90 K температурада  $\pi$ -polyarizatsiyada yaxshi ajratilish bilan kuzatiladigan  $^7F_6 \rightarrow ^5D_4$  yutilish polosasining  $D = 10.7 \text{ sm}^{-1}$  ga teng bo'lgan dastlabki dublet chizigi ajralishining pasayishiga olib kelishi ko'rsatildi. Bunda bo'ylama maydonda  $^7F_6$  multipletining asosiy "kvazidublet" holati ajratilmaydi va yutilish chiziqlari esa kattaligi maydon kuchlanganligi oshishi bilan ortuvchi Zeeman ajralishlariga duchor bo'ladi va bu o'z navbatida  $C_s$  simmetriyali kristal qobiqda nokramers NY-ioni magnitlanishining o'ziga xos aniqlangan xususiyati hisoblanadi.

4. Birinchi marta magnit sirkulyar qutblanish lyuminessensiya spektral bog'lanishlari tahlili asosida  $Tm^{3+}:YaG$  tulliy-ittriyli granat-alyuminat monokristalida  $^1G_4 \rightarrow ^3H_6$ ,  $^1D_2 \rightarrow ^3F_4$  va  $^1D_2 \rightarrow ^3F_3$  lyuminessensiya polosalarida  $Tm^{3+}$  ionining uyg'otilgan  $^1D_2$ ,  $^3F_4$ ,  $^3G_4$  va asosiy  $^3H_6$  multipletlarida "kvaziaynigan" holatlar mavjudligi aniqlandi.

5. "Kvazidublet" tuzilishga ega bo'lgan  $Tm^{3+}$  nokramers ionidagi  $4f \rightarrow 4f$  o'tishlarning lyuminessensiya polosalaridagi magnetooptik effektlarning paydo bo'lishi mexanizmida kvant mexanik "aralashtirish" effekti muhim rol o'ynashi ko'rsatildi. Topilgan  $4f \rightarrow 4f$  o'tishlarining simmetrik identifikatsiya natijalari magnitooptik tadqiqotlarda olinga kattaliklar bilan tasdiqlandi.

6. Yevropiy-galliyli granat kristalida Faradey effektini tadqiq qilish asosida Verde doimiysining  $EuGaG$  granat magnit kirituvchanligiga proporsional emasligi aniqlandi.

**ДОКТОРА НАУК DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ  
ИОННО-ПЛАЗМЕННЫХ И ЛАЗЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ АН РУз**  

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО  
УЛУГБЕКА**

**ТУРОТОВ ФУРКАТ КУЛДОШ ЎҒЛИ**

**МАГНИТООПТИЧЕСКИЕ И ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА  
КРИСТАЛЛОВ ИТТРИЕВЫХ ГРАНАТОВ И ИТТРИЕВЫХ  
ФТОРИДОВ, АКТИВИРОВАННЫХ ИОНАМИ ТУЛИЯ  $Tm^{3+}$  ЕВРОПИЯ  
 $Eu^{3+}$  И ТЕРБИЯ  $Tb^{3+}$**

**01.04.05 – Оптика**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент–2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/FM889.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека..

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб странице Научного совета ([www.iplt.uz](http://www.iplt.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Валиев Уйгун Вахидович**  
доктор физико-математических наук, профессор.

**Официальные оппоненты:** **Эшчанов Баходир Худайбергенович**  
доктор физико-математических наук, профессор

**Рахимов Рахимберган Юлдашевич**  
доктор физико-математических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 17 » июня 2025 года в 16:00 часов на заседании Научного совета **DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01** при Институте ионно-плазменных и лазерных технологий. Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 33. Здание института Ионно-плазменных и лазерных технологий, зал конференций. Тел./факс: (+99871) 262-32-54; email: [info@iplt.uz](mailto:info@iplt.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Ионно-плазменных и лазерных технологий (зарегистрирована за № 8). Адрес: 100125, г.Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 33. Здание Института ионно-плазменных и лазерных технологий, зал конференций. Тел./факс: (+99871) 262-31-69;

Автореферат диссертации разослан « 3 » июня 2025 г.  
(протокол рассылки № 8 от 3 июня 2025 г )



*[Handwritten signature]*

**Ашуров Х.Б.,**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

*[Handwritten signature]*

**Ядгаров И. Д.,**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

*[Handwritten signature]*

**Махманов У.К.,**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Современная магнитооптическая спектроскопия редкоземельных (РЗ) соединений, возникшая на стыке двух фундаментальных областей физики – физической оптики и физики магнитных явлений – включает в себя широкий спектр теоретических и экспериментальных исследований по анизотропии оптических свойств различных редкоземельных материалов проявляющихся во внешнем магнитном поле  $H$ .

Уникальные физико-химические свойства фторидных редкоземельных соединений и редкоземельных соединений на основе иттрий алюминиевого граната обуславливают их применение в качестве материала, применяемого при создании твердотельных лазеров, легирующих добавок в производстве ряда оптических материалов сенсоров, работающих в ультрафиолетовом, видимом и среднем инфракрасном диапазонах, оптико-волоконных световодов, концентраторов солнечной энергии.

Этот интерес обусловлен тем обстоятельством, что единственным источником возникновения магнитооптических эффектов, также как и магнитного момента в полностью невырожденных электронных состояниях некрамерсовского РЗ – ионов  $Tm^{3+}$ ,  $Tb^{3+}$  и  $Eu^{3+}$  может быть лишь механизм «смешивания» (внешним полем) волновых функций близлежащих штарковских синглетов, образующих так называемые «квазидублетные» состояния. Поэтому новые исследования спектров излучения  $Tm^{3+}:YAG$  и  $TbF_3$ , проведенные с использованием дифференциальных магнитооптических методов (эффект Зеемана, магнитная циркулярная поляризация люминесценции), были бы очень полезны, так как их применение может помочь в позиционировании и определении симметрии близлежащих (т. е. «квазивырожденных») Штарковских подуровней в некрамерсовских ионах  $Tm^{3+}$ .

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года," Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 29 декабря 2020 года № ПП-5032 "О мерах по повышению качества образования и совершенствованию научных исследований в области физики" и другими нормативно-правовыми документами, принятыми в данной сфере.

**Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий в Республике Узбекистан: II. «Энергетика, энерго - и ресурсосбережение».

